Ochilova Ozoda Baxtiyorovna (UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi; ozoda.ochilova.0708@gmail.com)

OMON MATJONNING TARIXIY XARAKTER YARATISH MAHORATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning tarixiy xarakter yaratish mahorati, o'ziga xosliklari haqida gap boradi. Omon Matjon tarixiy asarlarida qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlashga intiladi. Bu, ayniqsa, buyuk ajdodimiz, tasavvuf namoyandasi Najmiddin Kubro obrazi tasvirida yorqin ko'rinadi. Adabiyotimizda ko'plab janrlarda tarixiy mavzudagi asarlar yaratilgani ma'lum. Turli janr va uslubda yozilgan bu asarlar uchun muayyan tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini davr voqealari asosida xolis talqin etish, tarixiy va badiiy haqiqat uyg'unligiga erishish mushtarak maqsaddir.*

Kalit so'zlar: *Shayx Najmiddin Kubro, tragediya, tarixiy xarakter, Omon Matjon, realistik tasvir, tarixiylik, badiiy obraz, "Dravaxonim" ("To'rabekaxonim"), tarixiy shaxs obrazi.*

Очилова Озода Бахтияровна (преподаватель кафедры узбекского языкознания УрГУ)

МАСТЕРСТВО ОМОНА МАТЖОНА В СОЗДАНИИ ИСТОРИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация. *В данной статье рассказывается об умениях и особенностях поэта Омона Матжона в создании исторического персонажа. В своих исторических произведениях Амон Матжон стремится реалистично описать внешний вид героев и их поступки. Особенно это проявляется в образе нашего великого предка, деятеля суфизма Наджмуддина Кубро. Известно, что в нашей литературе создано множество жанров исторических произведений. Для этих произведений, написанных в разных жанрах и стилях, общей целью является непредвзятая интерпретация жизни и деятельности отдельных исторических деятелей, основанная на событиях времени, достижение гармонии исторической и художественной правды.*

Ключевые слова: *Шейх Наджмиддин Кубро, трагедия, исторический персонаж, Омон Матжон, реалистический образ, историчность, художественный образ, «Драваханим» («Торабекахоним»), образ исторической личности.*

Ochilova Ozoda Bakhtiyorovna (teacher of the department of "Uzbek linguistics" of UrSU)

OMON MATJON'S SKILLS IN CREATING HISTORICAL CHARACTER

Annotation. *This article discusses the skill and uniqueness of the poet Omon Matjon in creating historical characters. In his historical works, Omon Matjon strives to realistically depict the appearance of heroes and their actions. This is especially evident in the image of our great ancestor, the representative of Sufism, Najmiddin Kubro. It is known that works on historical themes have been created in many genres in our literature. For these works, written in different genres and styles, the common goal is to objectively interpret the lives and activities of certain historical figures based on the events of the period, and to achieve harmony between historical and artistic truth.*

Keywords: *Sheikh Najmiddin Kubro, tragedy, historical character, Amon Matjon, realistic depiction, historicity, artistic image, "Dravakhonim" ("Turabekakhonim"), image of a historical figure.*

Kirish. Keyingi yillarda jahon adabiyotida kuzatilganidek, o'zbek adabiyotida ham tarixiy mavzudagi asarlar ko'plab yaratilayotgani quvonarli hol. Sababi o'zlikni anglash, komillik, barkamol shaxsni tarbiyalash tarixni chuqur o'zlashtirishdan boshlanadi. Shuningdek, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo'lyozma asarlar, ulardagi buyuk tarixiy shaxslar hayotini o'rganish va xalqimizga havola etish bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Mustaqillik davri adabiyotida xalqimizning shonli tarixini, dong taratgan tarixiy shaxslarni bugungi estetik, falsafiy, ijtimoiy va siyosiy tafakkur asosida qayta idrok va badiiy tadqiq etish zarurligi muhim masala sifatida ko'rina boshladi. Garchi, "...birinchi navbatda, ularda qadimgi asl milliy qadriyatlar, qachonlardir yuz bergan tarixiy hodisalar yigirma birinchi asrning sog'lomlashgan tafakkuri asosida qaytadan taroziga solinib, boshqadan o'lchab ko'rilganligi aks etganini aytish joiz. Tarix va undagi ulkan ijtimoiy evrilishlar odamlar tomonidan amalga oshirilishi, tarixiy shaxslar ma'naviy qiyofasining tarixiy hodisalar ijtimoiy salmog'ini tayin etishi ijodkorlarimiz tomonidan anglab yetilmoqda" [2;110-b.].

Aslida, o'zbek adabiyotida adabiy-tarixiy xarakter yaratishning yangi bosqichi XX asrning 70–80-yillaridan boshlangan bo'lib, uning asosini xolislik va haqqoniylik tamoyillari tashkil eta boshladi va bu jarayon, asosan, milliy istiqlol davri badiiy-estetik tafakkurida yanada kengaydi. Tarixiy shaxsga bag'ishlan-

gan asarlarda muayyan davr ruhi, muallif dunyoqarashi va janr xususiyatlari o‘z ifodasini topib, voqelikka xolis munosabat bo‘lishi zarur hisoblanishi ma’lum.

Har bir ijodkorning ijod xazinasi rang-barang mavzu, janr, obrazlar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu holatni adib yoki shoirning iste’dodi, maqsadi va qiziqishlari doirasining ko‘lami bilan izohlash mumkin. Ammo bu hodisa qanchalik yorqin bo‘lsa ham unda ijodkorning muayyan jihatga bo‘lgan kuchli moyilligi, aynan shu mavzularga ko‘proq murojaat etishi namoyon bo‘ladi. Bu o‘ziga xoslikni O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon ijodida ham kuzatish mumkin. Shoir Xorazm vohasida tug‘ilib, voyaga yetgan. Tug‘ilgan joy tuprog‘ining har bir zarrasi inson uchun muqaddas va sir-sinoatga boy. Vatanparvar farzand uchun uning shonli o‘tmishi va ajdodlar turmush tarzi doimo qiziq. O‘z xalqining haqiqiy vatanparvar farzandi bo‘lgan Omon Matjon Xorazm xalqi madaniyati, tarixi, tarixiy shaxslari va taraqqiyoti bilan hamisha qiziqib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Omon Matjon ijodida tarixiy mavzudagi asarlarning salmog‘i ancha yuqori. Uning Najmiddin Kubro, Beruniy va Pahlavon Mahmud, To‘rabekaxonim siymolari yaratilgan asarlari shular jumlasidandir. Turli janr va uslubda yozilgan bu asarlar uchun muayyan tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini davr voqealari asosida xolis talqin etish, tarixiy va badiiy haqiqat uyg‘unligiga erishish mushtarak maqsaddir. Bu maqsadning ifoda shakli har bir ijodkorda o‘ziga xos va betakror bo‘lib, uning badiiy iqtidori, mavzuga yondashish yo‘nalishi, ijodiy metodi, shaxsiy mayli va boshqa omillar bilan bog‘liqdir. N.Karimov, U.Normatov, J.Jumaboyeva, O‘.Panayeva, B.Rahimova kabi qator adabiyotshunoslar tadqiqot-maqolalarida Omon Matjon ijodidagi tarixiylik, tarixiy siymolar obrazini yaratish mahorati kabi masalalarga alohida to‘xtalganlar.

“Tarix tili bilan zamon dardlarini ayta olgan” Omon Matjon ijodini chuqur tadqiq qilgan olima J. Jumaboyeva shoir ijodidagi tarixiylik masalasini batafsil o‘rganadi. “Agar e’tibor bilan kuzatilsa, Omon Matjon ijodining ko‘pchilik qismida tarixga murojaat zamirida yuzaga kelgan bir hozirjavoblikni kuzatishimiz mumkin. Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaydi. Bularning birinchisi – millat, Vatan tarixiga murojaat orqali zamondoshiga tengsiz ma’naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi – ular qonida bobo-momolari qoldirgan bebaho meros-an’analar ruhini uyg‘otish; uchinchisi – kelajakka ana shu ma’naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da’vatdan iboratdir” [1;178-b.].

Omon Matjon asarlarida insonlar kurashchanlik ruhidan mahrum bo‘lsa, bu holat nafaqat uning, balki butun insoniyatning fojiasidir degan g‘oya ilgari suriladi.

Omon Matjon ijodidagi tarixiylik konsepsiyasi masalasini alohida tadqiq qilgan O‘.Panayeva “O. Matjonning Xoja Ahror Valiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmudga bag’ishlangan asarlarida badiiy fantaziya usuli seziladi. Tarixiy shaxslarning yashagan zamonlari va makonlari aniq o‘lchovga asoslangan”, degan fikrni keltiradi [6;33]. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov esa Omon Matjonning bu xususdagi qiziqishlari haqida shunday yozadi: “...kechmish, tarixiy siymolar tasviri ijodida salmoqli o‘rin tutadi. U tarixiy o‘tmish yoki safar taassurotlari haqida yozganda ham birinchi galda zamondosh yurtdoshlari uchun zarur, qiziqarli, hayajonli biror jiddiy, ibratli gap aytishga tirishadi” [4;372-b.].

Bu fikrlar Omon Matjonning buyuk alloma Najmiddin Kubro badiiy siymosi tasvirlangan “Najmiddin Kubro” fojiasi hamda “Dravaxonim” (“To‘rabekaxonim”) qissalari uchun ham tegishlidir. Turli janrlarda yozilgan bu asarlarda buyuk ajdodimiz Najmiddin Kubro hayoti, ibratli umr yo‘lini yuksak badiiy mahorat bilan yarata olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy xarakter yaratishda yozuvchining obrazga yondashuv uslubi, individual xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotda milliy xarakter yaratish borasidagi muammolar ham adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan bo‘lib, davrning ma’naviy qiyofasi badiiy aynan badiiy asar qahramonlarning xarakter xususiyatlari orqali ochub beriladi. D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva hammuallifligida nashr qilingan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da yunon tilidan olinib, “belgi, farqlovchi xususiyat” ma’nosini bildiruvchi “xarakter” tushunchasiga “badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o‘zida uyg‘un mujassam etgan inson obrazi” deya ta’rif beriladi [5;352-b.].

Tahlil va natijalar. Xarakter yaratish tarixiy shaxs talqinidagi muhim jihatlardan biri bo‘lib, Najmiddin Kubro xarakterining mohiyati, avvalo, uning o‘zi mansub bo‘lgan muhitiga, mo‘g‘ullar istilosi davridagi dolzarb masalalarga teran munosabatida, vatanparvarligida, tasavvuf va din peshvosi sifatidagi faoliyatida yanada ravshan namoyon bo‘ladi. Najmiddin Kubro xarakteri tasvirlangan asarlarda alloma yashagan davr haqiqatining badiiy talqini, el-yurt ozodligi yo‘lida jonini tikkan Vatan fidoyisi – mard, qahramon ajdodimizning adabiy obrazi turli rakurslarda aks ettiriladi. “O‘z-o‘zidan ma’lumki, har qanday ba-

diiy asarda ham xarakter hayot haqiqatini o‘zida ifodalamasa, uning o‘rnini uzundan uzun bayon, ta’rif va tavsiflar egallasa, u badiiylikdan mahrum bo‘lib qoladi. Xarakter yaratish yozuvchining mahoratiga va ijodiy maqsadiga bog‘liq. Asarda harakat qiluvchi xarakter o‘zida hayot haqiqatining muhim jihatlarini ifodalay olsagina, u kitobxonning inson haqidagi tasavvurini boyitib, ongiga ham, yuragiga ham ta’sir kuchini o‘tkaza oladi” [3;10-b.]. Tarixiy voqealar asosidagi yoxud tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlardagi voqealar talqini ikki xil yo‘nalishga ega. Birinchi yo‘nalishda tarixiy shaxsning tarjimai holi talqini aynan aks ettirilib, tarixiy voqealar fon vazifasini bajarsa, ikkinchisida tarixiy shaxs hayotidagi muayyan voqealar yoki ularning bir qismi talqini vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy muammolar yoritiladi.

Omon Matjon “Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasini yozish uchun buyuk siymo haqida yaratilgan ko‘pgina manbalar bilan mukammal tanishib chiqqanligini asarni o‘qigan zukko kitobxon yaxshi ilg‘aydi. Manbalardan ma’lumki, Najmiddin Kubro hayot yo‘li va faoliyati Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Rashididdin Fazlullohning “Jome at-tavorix”, Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoim ul-muhabbat”, Ali Safiyning “Rashohotu aynil-hayot”, Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Ibn al-Karbaloyining “Ravzat ul-jinon”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Sayfiddin Boharziyning “Avrod ul-ahbob va fusus ul-odob”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar” kabi yana ko‘plab boshqa asarlarda o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, Shayx haqida xalq og‘zaki ijodida ham qator afsona va rivoyatlar, manoqiblar ham yaratilgan bo‘lib, “Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro”, “Shayx Najmiddin Kubro qissasi”, “Ibn Hojib qissasi” kabi asarlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, tasavvufga oid juda ko‘plab manbalarda ham Najmiddin Kubroning qilgan xayrli amallari, martaba va mo‘jizalari haqida fikr yuritiladi. Omon Matjon bu asarlardan unumli foydalangan holda, Shayx Najmiddin Kubro badiiy siymosini to‘laqonli yarata olgan. Fojiada muallif o‘ndan ortiq asosiy obrazlar va ko‘plab yordamchi (ikkinchi darajali) qahramonlardan foydalanadi. Fojiada yetmish besh yoshli Shayx Najmiddin Kubro, Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkan xotun, o‘g‘illari – Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O‘zloq shoh (taxt vorisi), Rukniddin Gursanji, Vazir Alaviy Xevaqiy, Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak kabi asosiy obrazlar va ular bilan bir qatorda hojib, sharobdor, davatdor, munshi, darveshlar, maxfiylar, navkarlar kabi epizodik obrazlar ham mahorat bilan aks ettiriladi. Ayniqsa, bosh qahramon – Najmiddin Kubro obraziga alohida mas’uliyat bilan yondashadi. Chunki millat sha’nini so‘nggi nafasigacha qo‘riqlagan vatanparvar, mard va jasur inson, tavba va taqvo posboni (Abuljannob), dinning yulduzi (Najmiddin), ulamolarning yetugi (Tammatul Kubaro) – zamonlar va davronlar pardasi orqasidan zamonamizga boqib turgan Shayxi Valitarosh badiiy siymosini gavdalantirish har qanday adibdan yuksak mahorat, iqtidor, kuchli ilm va asosiysi, ruhiy yaqinlik, ilohiy quvvat talab etadi. Omon Matjon mana shu jihatlarning barchasini o‘zida jamlagan betakror ijodkor sifatida tarixiy fojiada barcha imkoniyatlaridan unumli foydalangan.

Adib o‘zining “Najmiddin Kubro” fojiasida Gurganjda Muhammad Xorazmshoh hukmronlik qilayotgan davr (1220–1221)larni qalamga oladi. Uning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdining, o‘z davrida Xorazm ijtimoiy-adabiy muhitida yuqori mavqega ega bo‘lgan mutasavvuf olim Najmiddin Kubroning istilochi bosqinchilarga qarshi mardlarcha kurashi, o‘zining aziz jonidan kechib bo‘lsa ham, Vatanini himoya qilish va shu yo‘lda jon fido qilishi voqealari asarda juda ta’sirli lavhalarda bayon qilinadi. Bu orqali muallif Shayxning chin vatanparvar inson sifatidagi yorqin obrazini yaratadi. Fojiada voqelikni teran, hayotiy dalillar asosida tasvirlanishi, inson ma’naviy dunyosining chuqur tahlilga tortilishi, vatanparvarlik tuyg‘usining o‘zgacha bir ehtiros bilan ifodalanishi namoyon bo‘lgan. Najmiddin Kubro butun umr inson pokligi, ilohiy ma’rifat uchun kurashdi, dunyoviylik bilan ilohiylikni qo‘shdi, mardlik va ma’naviy yuksalishdan saboq berdi va bularning hammasiga uning hayoti ibrat namunasi bo‘lib qoldi. Omon Matjon Najmiddin Kubro hayotining so‘nggi yillarini tasvirlash orqali, insonning yashashdan maqsadi moddiy boyliklardan emas, balki ma’rifat va ruhiy boylik, ma’naviy yuksaklikdan iborat ekanligini ta’sirli lavhalar orqali ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon uslubida unga xos donishmandlik, ijodkorning tarixiy mavzuni yoritishga bo‘lgan shaxsiy mayli, iqtidori, adabiy tur va janrlarda o‘z salohiyatini namoyish eta bilish darajasi, shuningdek, chuqur falsafiylik va katta tajribaning, badiiy iqtidorning kuchi sezilib turadi. U realizm imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Asarlarida haqqoniylik va badiiy tasviriylik o‘zaro tabiiy uyg‘unlashgani yaqqol ko‘rinadi. Tarixiy shaxslar obrazini to‘laqonli gavdalantirishda badiiy to‘qima qahramonlar xarakterlari bilan chambarchas bog‘lagan holda ifodalanadi. Shuningdek, obrazlar harakat qilayotgan XIII asrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi, ruhi va xalq hayotining tub mohiyati ham haqqoniy aks ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати. Тошкент. “Фан”, 2004, 178-бет.

(2). Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006, 110-бет.

(3). Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80-йиллар). Фил. фанл. номз. Автореферати, Тошкент, 2001, 10-бет.

(4). Қуронов Д., З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, “Akademnashr”, 2013, 352-бет.

(5). Норматов У. Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт. Сўнг сўз. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Сайланма. Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1994, 372-бет.

(6). Панаева У. Ҳозирги ўзбек шеъриятида тарихийлик концепцияси (Омон Матжон ижоди мисолида). Филол. фанлари номзоди ... дисс., Тошкент, 2005, 33-бет.

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchi; ndilafruz476@gmail.com)

“MIFTOH UL-ADL” ASARINING MATNIY TADQIQI VA TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘z davrining yetuk ijodkori Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl” asarining 4656-D qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu qo‘lyozma Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondining dublet fondida saqlanmoqda. Bugungi kunga qadar Xoja asarlarining bironta qo‘lyozmasi to‘liq holatda nashr etilmagan. Mazkur asar Sharq mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadigan hikoyat janrining XVI asrdagi taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “Miftoh ul-adl” asarining matniy tadqiqi va tahlili amalga oshiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xoja, hikoyat, “Miftoh ul-adl”, qo‘lyozma manbalar, mumtoz, adabiyot, oyat, hadis, an’ana, tadqiq.*

Назарова Дилафруз Ихтиёровна (старший преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; ndilafruz476@gmail.com)

ТЕКСТОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “МИФТАХ УЛЬ-АДЛЬ”

Аннотация. *В этой статье представлена информация о рукописном экземпляре 4656-D произведения “Мифтах уль-Адль” ведущего творца своего времени Ибадуллы Сайида Шахходжа ибн Абдулваххабходжа (Ходжа). Эта рукопись хранится в дублетном фонде рукописей Института Востоковедения имени Абу Райхана Беруни. На сегодняшний день ни одна рукопись произведений Ходжи не опубликована в полном виде. Это произведение сыграло важную роль в определении развития в XVI веке жанра повествования, который занимает особое место в классической восточной литературе. В этой статье будет проведено текстовое исследование и анализ произведения “Мифтах уль-адль”.*

Ключевые слова: *Ходжа, хикаят, “Мифтах уль-адль”, рукописные источники, классика, литература, аят, хадис, традиция, исследовать.*

Nazarova Dilafruz Ikhtiyorovna (Senior Lecturer, Department of “Uzbek Language and Literature”, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature: ndilafruz476@gmail.com)

TEXTUAL RESEARCH AND ANALYSIS OF THE WORK “MIFTOH UL-ADL”

Annotation. *This article provides information about the manuscript copy 4656-D of the work “Miftoh ul-adl” by the outstanding writer of his time, Ibadulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja). This manuscript is stored in the duplicate fund of the manuscript fund of the Abu Rayhon Beruni Institute of Oriental Studies. To date, no manuscript of Xoja’s works has been published in full. This work is of great importance in determining the development of the genre of the story, which occupies a unique place in the classical literature of the East, in the 16th century. This article presents a textual study and analysis of the work “Miftah ul-adl”.*

Keywords*: Xoja, story, “Miftoh ul-adl”, and manuscript sources, classic, literature, verse, hadith, tradition.*

Kirish (Introduction). Ko‘hna tarix tamaddunida o‘zbek xalqi o‘zining boy tarixi, buyuk ma’naviy merosi, an’analari bilan alohida o‘rin tutadi. O‘zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, mavzu-mundarijasi boyib kelgan. Adabiyotimiz namoyandalari orasida o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja Xojadir. Podshohxoja o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”